

PEDAGOG ETIKETIDA TINGLASH MADANIYATINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Zebiniso Amonova

Toshkent shahar 227-IDUM

oliy toifali o‘qituvchisi.

Email: zebinisoamonova733@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogning etiketida muhim ahamiyat kasb etuvchi tinglash madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlari hamda muloqot jarayonida yuzaga keluvchi faktorlarning ahamiyati yoritildi. Shuningdek, tinglash mahoratida pedagogning pozitsiyasi ilmiy asosda tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: muloqot, neytral, selektiv eshituv, faol tinglash.

Ma’lumki, pedagogning faoliyati yakka tartibdagi o‘zgarmas vositalar bilan emas, to‘g‘ridan to‘g‘ri inson omili bilan bog‘liq. Pedagog jamoa davrasida, ish faoliyatida, o‘quvchilar bilan mashg‘ulotlar jarayonida, muzokaralar olib borishda insonlar bilan munosabatga kirishishi lozim. Shu sababdan ham, pedagog o‘zida o‘qituvchilik faoliyati uchun zarur bo‘lgan barcha kompetensiyalarni shakllantirishi kerak. Birinchi navbatda, pedagog muvaffaqiyatli va ijobiy faoliyatini yaratishi uchun aloqa texnikasini shakllantirishi lozim. Aloqa texnikasining asosiy faktori professional og‘zaki muloqot hisoblanadi. Pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat ham dastlab og‘zaki muloqotdan so‘ng kelib chiqadi. Bunday holatda, o‘zaro tushunarliklik va ishonch holatini yuzaga keltiruvchi asosiy omil muloqot davomidagi eshitish ko‘nikmasi sanaladi.

Ahamiyatli jihati, tinglash funksiyasining o‘zi bir nechta guruhga bo‘linadi. Fikrimizcha, doimiy tarzdagi tinglash, munosabatga kirishganda eshitish va professional kasb nuqtai nazaridan tinglash o‘zining xususiyatlariga ko‘ra farq qiladi.

Neytral eshitish, odatda, axborot to‘plash maqsadida yuzaga keladi. Sof shaklda bu uslub juda kamdan-kam hollarda amalga oshiriladi, chunki suhbatdoshni tinglab, odam odatda aytilgan gaplarga nisbatan munosabatni shakllantiradi va eshitishning betarafligi tezda yo‘qoladi. **Mudofaa eshituvi**. Bu holatda asosan tanqid tinglanadi ya’ni qarshi fikr bildirish uchungina fikr bildiruvchi tinglaniladi. Tanqidchi tomonidan eng kichik noto‘g‘ri ma’lumotlar va undan keyin kelib chiqadigan ma’lumotlar tinglovchilar tomonidan qabul qilinmaydi, bu esa darhol e’tirozlarni shakllantiradi. **Selektiv eshitish**, tinglovchining faqat ma’ruzachining nutqining muayyan qismlariga javob berishi, masalan, uning nuqtai nazarini tasdiqlaydi. Bunday eshitish, albatta, nafaqat samarasiz, balki xavfli: tinglovchi spikerning pozitsiyasi haqida mutlaqo noto‘g‘ri fikrga ega bo‘lishi mumkin.⁵

Faol tinglash. Tinglovchi spikerga gapirishga yordam beradi, nutqini unga qiziqqan narsalarni eshitish uchun boshqaradi. Faol tinglashda tinglovchi spikerni hikoya mavzusidan uzoqlashtirmaydigan savollarni so‘raydi.

Pedagog sifatida professional faoliyatni amalga oshirish uchun faol(aktiv) tinglash ish jarayonidagi eng muhim element hisoblanadi. Buning asosiy sababi, faol tinglash – o‘quvchi bilan aloqa o‘rnatishga, qimmatli va kerakli ma’lumotlarga ega bo‘lishga, vaziyatning eng kichik detallari bilan tanishishga, ijobiy taassurot qoldirishga yordam beradigan muvaffaqiyatli ish uslubi hisoblanadi.

Pedagog faoliyatida “faol tinglash”ni amalga oshirish qulaylik va ishonch muhitini yaratishga, o‘quvchiga e’tibor berishga, eshitilganlik va tushunilganlik holatini ko‘rsatishga imkon beradi. Boshqa tomondan, faol tinglash suhbatning mazmunini yaxshiroq eslab, hissiy tomonini boshqarishga, suhbatdoshni keyingi suhbatga da’vat etishga yordam beradi. O‘quvchi bilan aloqa o‘rnatishning eng sodda va samarali yo‘li – bu uni eshitish hisoblanadi. Eng asosiysi diqqat bilan eshitish. O‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatda eshitish omili muhim ekan, bu holatga befarq, xohishsiz, diqqatni jamlamagan holda, e’tiborsiz munosabatda bo‘lish o‘quvchining ishonchini susaytirishi mumkin. Sababi, mavjud vaziyat bo‘yicha

⁵ https://studref.com/440623/menedzhment/kommunikativnye_navyki

pedagogik konsultatsiya olishni maqsad qilgan holda murojaat qilgan o‘quvchi mutaxassis tomonidan alohida e’tibor, kirishuvchanlik, tezkorlik va diqqatli bo‘lishni kutadi. Muammolari va ikkilanishlarini oldini olish va yechim topish maqsadida kelgan o‘quvchini e’tiborsizlik bilan shunchaki tinglash, dastlab o‘quvchining ko‘nglini qoldiradi hamda ishning samarasiz yakuniga olib keladi. Buning sababi, konsentratsiya asosida tinglanmagan muammoning yechimi aniq va tezkorlik bilan hal qilinmasligi mumkin.

Fikrimizcha, pedagogning kasb etiketi va o‘qituvchilik faoliyati nuqtai nazaridan faol tinglashni amalga oshirishi lozim. O‘quvchini shunchaki tinglash bilan cheklanish natijaviy va samarali ish uslubiyatidan cheklanish hisoblanadi⁶. Zamonaviy ish ko‘nikmalari va kompetensiyalarni o‘zida rivojlantirgan mutaxassis ish faoliyati doirasida barcha detallarga e’tiborli bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, o‘quvchi va pedagog munosabatining o‘zagi-tinglovchilik pedagog faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Taniqli boshqaruv ishlari bo‘yicha maslahatchi, boshqaruvga oid asarlar muallifi Tom Peters fikriga ko‘ra samarali tinglash, sodda tilda gapirish, oddiy savollar berish, suhbatdoshga yaqinroq bo‘lish, so‘roq qilish, eslatma olish, fikr-mulohazalarni talab qilish va uni ta’minlash ishning muvaffaqiyati hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, pedagog faoliyati yuzasidan faol tinglash funksiyasini doimiy tarzda amalga oshirishi lozim. Umumiy holatda, aktiv tinglangan va barcha ma’lumotlar qayd etilgan bo‘lsa mavjud muammoning yechimi darhol topiladi va bu o‘qituvchining ish mahorati, kommunikativ ko‘nikmalari, zamonaviy ish uslubi, mutaxassislik bilimi bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

REFERENCES:

1. Миролюбова, С.Ю. Компетентностный подход в образовании юриста / С.Ю. Миролюбова.— Текст: непосредственный // Реформы и право.— 2013.

⁶ Кочерга, С.А. Электронные образовательные технологии: перспективы развития /С.А. Кочерга.— Текст: непосредственный // Журнал российского права.— 2011.— № 8.— С. 33 — 39

2. Кочерга, С.А. Электронные образовательные технологии: перспективы развития /С.А. Кочерга.— Текст: непосредственный // Журнал российского права.—2011.

3. https://studref.com/440623/menedzhment/kommunikativnye_navyki

